



## TILNING PAYDO BO`LISHI VA JAMIYATDAGI O`RNI

**Palvonnazarova Hayotxon Jamoladdin qizi**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Turkiy tillar fakulteti, O`zga tilli guruhlarda o`zbek tili ta`lim yo`nalishi  
1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7493794>

### ARTICLE INFO

Received: 21<sup>th</sup> December 2022

Accepted: 29<sup>th</sup> December 2022

Online: 30<sup>th</sup> December 2022

### KEY WORDS

*Tilning paydo bo`lishi to`g`risidagi farazlarni 4 guruhga bo`lib o`rganamiz.*

### ABSTRACT

*Til bu ijtimoiy hodisa. Til jamiyat taraqqiyoti orqali vujudga kelgan. Olimlarning fikricha tilning paydo bo`lganiga besh yuz ming yildan ortiq vaqt bo`lgan. Til ham boshqa narsalarga o`xshab o`zgaruvchidir. Har Har bir xalqning shakllanishi shu tilda so`zlashuvchilarning kelib chiqishiga bog`liq.*

Tovushga taqlid – Hayvonlarning, qushlarning, shamolning ovozlari taqlid odamlar ongli yoki ongsiz tarzda taqlid qilishgan.

Undovlar farazi – bu farazda ham hayvonlarning tovushlariga taqlid qilishgan lekin asosiysi unda o`zlarining ichki kechinmalarini g`am-alam, baxt-dardlarini namoyon qilishgan.

Mehnat chaqiriqlari – bu farazda til odamlar jamoa bo`lib ishlaganda foydalangan tovushlar orqali vujudga kelgan.

Ijtimoiy kelishuv farazi – bu farazda odamlar narsalarni qanday nomlashni kelishib olib keyin qo`yganlar shundan til paydo bo`lgan deb o`ylashadi lekin bu tilning paydo bo`lishi uchun emas balki tilning rivoj topishi uchun xizmat qilgan.[1]

Tilning asosiy vazifasi insonlar o`rtasida fikr almashinuvi uchun xizmat qilish. Til bor joyda jamiyat bor, jamiyat bor joyda esa til bor. Ularni bir – biridan ajratib bo`lmaydi til bilan jamiyat uzviy bog`liq.

Sayyoramizda 7 mingdan ortiq til bor. Ularning har biridan qanchadan – qancha inson foydalanadi. Xalqaro tillar turli davlat xalqlarning aloqa vositasi bo`lib xizmat qiladi. Til butun xalqning fikr almashinuvini tushunishga yordam beradi. Xalqaro tilni olimlar ikki guruhga bo`lib o`rganishadi. Bular sun`iy va tabiiy til hisoblanadi. Tabiiy tillarni hech qanday tilshunos olimlar yaratmaydilar. Ular jamiyatning bir-biri bilan muloqoti orqali vujudga kelgan. Sun`iy tillar esa tabiiy tilning aksi bo`lib, tilshunos olimlar sun`iy tilni o`zlarining umumiy maqsadlarini ko`zlab yaratadilar va sun`iy tillar tabiiy tillarning o`rinbosari sifatida xizmat qiladi. Har qanday tilning oliy shakli bu adabiy til hisoblanadi. Adabiy til qoidalarga qat`iy rioya qiladi. O`zi adabiy til xalq shevalaridan yaratiladi. Xalq shevalari orqali boyib rivojlanib boradi. O`zbek adabiy tili qarluq, qipchoq, o`g`uz shevalari orqali vujudga kelgan. Hozirda Farg`ona, Toshkent hududlarining shevalar adabiy til uchun asos qilib olingan. Tilni o`rganuvchi soha bu tilshunoslik. Til rivojlanishi uchun, albatta, jamiyat bo`lishi kerak.

Til faqat axborot berish vazifasini bajarmaydi, soʻzlayotgan insonning oʻz fikriga munosabatini ham bildiradi. Tilning umri rivojlanishi u tilda gaplashuvchi insonlarga bogʻliq. Til jamiyat bilan birga paydo boʻladi va shu jamiyat bilan birga oʻladi. Oʻlik tillar bu tilda gaplashuvchilar ona tili deb hisoblaydignlar yoʻqligidan. Bu tilning grammatikasi ham tovushlar tizimi ham bor lekin bu tilda rivojlanish yoʻq.

Oʻzbek tili dialektizmlarga boy til. Oʻzbek tilini tashkil etuvchi shevalarni uch lahjaga birlashtirish mumkin: qarluq, qipchoq, oʻgʻuz lahjalaridir. Poligonov oʻzbek tilining koʻp dialektli til ekanligini nazarda tutib: “Oʻzbek milliy tili (oʻzbek lahjalarining bir butunligi, yaxlitligi sifatida) yagona tizimning, aslida hech qachon amalda boʻlmagan oʻzbek bobo tilining dialektologik parchalanish yoʻli bilan emas, balki farqlanuvchi til tizimlarining birlashuv yoʻli bilan paydo boʻlgan”. Oʻzbek tilining biron bir shevasini adabiy tilga har taraflama asos boʻlgan deb aytib boʻlmaydi. Sababi shundaki hozirgi oʻzbek adabiy tili uzoq oʻtmish adabiy tilining ishlov berilgan bir turi hisoblanadi. U oʻz oʻzidan yangidan paydo boʻlib qolmagan. Tilning shevadan farqi shundaki, til butun bir jamiyatga tushunarli boʻladi sheva aksincha faqat bir guruhgagina taalluqlidir. Til chegaralanmagan sheva esa chegaralangan chunki adabiy tilini hamma tushunadi shevalarni esa faqat shu yerda yashaydiganlarga tushunadi. Jamiyatning muayyan tarixiy sharoitida xalqlar rivojlanib millat boʻla oladi. Millatning rivoj topishi uchun odamlar orasida iqtisodiy munosabat boʻlishi kerak. Har bir til rivojlanadi, biror til shu davrgacha rivojlanmay qolgan emas hammasi rivojlanib oʻzgarib bormoqda. Tilning rivojlanishi jamiyat tarixi bilan bogʻliq. Oʻzbek tilining barcha lahjalari oʻzbek tilining taraqqiyotiga juda katta hissa qoʻshgan. Adabiy tilning shakllanishida oʻzbek tilining oʻgʻuz lahjasining oʻrni juda katta.

Oʻzbek tilining oʻrganilish tarixi va bosqichlari:

XI-XIV asrlar (Qadimgi turkiy tilshunoslik)

XV-XIX asrlar (Eski turkiy tilshunoslik)

XX asrning boshidan XX asr 80-yillarigacha (formal oʻzbek tilshunosligi)

XX asrning 80-yillaridan bugungi kungacha (substansial oʻzbek tilshunosligi)

Oʻzbek tilshunosligi Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asari bilan boshlanadi. Bu bosqichda Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammmad Bobur, Atoyi Binni Muhibiy, Mirzo Mehdixonlarning lingvistik qarashlari va asarlari muhim ahamiyatga ega. XX asr oʻzbek tilshunosligining yuqori choʻqqiga erishishigiga Abdurauf Fitrat, Gʻozi Olim Yunusov, Ulugʻ Tursunov, Faxri Kamolovlarning xizmatlari juda katta.[2]

Til tabiiy holatda vujudga kelgan murakkab hodisa. Har bir millat oʻzining tili rivojlanishi uchun harakat qiladi. Hozirgi davrda dialektlar oldingiga nisbatan kamayib bormoqda, chunki ular ham adabiy tilga yaqinlashmoqda jamiyat rivojlangani sayin til ham rivojlanib boradi. Jamiyatdan tashqarida yashagan inson qancha umr koʻrmasin u baribir gapirib bilmaydi chunki insonning gapirishiga jamiyatning oʻrni juda katta boʻladi.

Milliy tillarning taraqqiyoti 3 bosqichda amalga oshadi:

Milliy til paydo boʻlgunga qadar sheva boʻlib keyin u tilga milliy til maqomi berilishi

Chatishuv orqali-bunda boshqa bir davlat kelib bosib oladi va oʻz tilini singdiradi natijada xalqda ikki tilni chatishuvi vujudga keladi.

XVI asrning oxirida Shekspir ijodining boshlanishi bilan bogʻliq.[3]

Milliy tillarning shakllanishida shoirlarning o`rni katta. O`zbek tilining shakllanishida Alisher Navoiy bobomizning o`rni beqiyosdir. Til faqat aloqa vositasi emas, Morze alfaviti imo-  
ishoralar orqali yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1 "O`zbek tilidan ma`ruzalar to`plami" Nargiza Erkaboyeva "Yosh kuch" 2019
- 2 "O`zbek tilining tarixiy grammatikasi" G`Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q.Mahmudov  
"O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti" 2018
- 3 "Tilshunoslikka kirish" M.T.Irisqulov "Yangi asr avlodi" 2009
- 4 "Hozirgi o`zbek adabiy tili" R.Sayfullayeva, B.Mengliyeva, G.Boqiyeva,  
M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova "Fan va texnologiya" 2009
- 5 "Tilshunoslikka kirish" Z.T Xolmonova TOSHKENT 2007